

IJTIMOIIY ISH FAOLIYATINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK AHAMIYATI. IJTIMOIIY PEDAGOGIKA TUSHUNCHASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17577204>

Xoshimova Mohinurxon Baxtiyor qizi

Farg'ona davlat universiteti

Ijtimoiy ish kafedrası 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada, ijtimoiy ishning pedagogik va psixologik ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Ijtimoiy ish jarayonida pedagogik yondashuvlarning tarbiyaviy, psixologik yondashuvlarning esa shaxsiy rivojlanishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek ijtimoiy ish tushunchasining mohiyati, uning jamiyatda tutgan o'rni va kasbiy vazifalari tahlil qilingan. Maqolada, ijtimoiy ish faoliyatining zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini, inson shaxsiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini hamda ijtimoiy pedagogikaning zaruriy amaliy funksiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlari

Ijtimoiy ish, ijtimoiy pedagogika, psixalogiya, shaxs rivojlanishi, moslashuvchanlik, ijtimoiy muhit, empatiya, ijtimoiylashuv omillari, ijtimoiy pedagogikaning asosiy tushunchalari.

Kirish

Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot jarayonida, inson omilli markaziy o'rinni egallamoqda. Har bir jamiyatning barqarorligi, taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishi, eng avvalo jamiyat a'zolarining ijtimoiy faoliyati, psixologik holati va madaniy darajasiga bog'liqdir. Shu boisdan, ijtimoiy ish sohasi inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga soluvchi, shaxsning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlovchi va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan amaliy fan sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy ish mazmunida, insonparvarlik, yordam, hamkorlik va qo'llab-quvvatlash tamoyillari turadi. U inson hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va psixologik omillarni bir butun tizim sifatida ko'radi. Ijtimoiy ishning asosiy maqsadi, insonlarni ijtimoiy muammolardan himoya qilish, insonni shaxs sifatida shakllantirish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga undash va ijtimoiy faol hayot tarziga, insonlarni tayyorlash. Shu jihatdan ijtimoiy ish, nafaqat amaliy faoliyat balki ilmiy-nazariy tahlilni talab qiladigan kompleks yo'nalishdir.

Ijtimoiy ishning bir bo'g'ini bo'lgan, ijtimoiy pedagogika tushunchasi ham kunimizda kengayib bormoqda. Pedagogik nuqtayi nazardan, ijtimoiy ish insonning tarbiyaviy ehtiyojlarini rivojlantirishga va ijobiy ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy pedagogika, insinning ijtimoiy tajribasini boyitish, jamiyat bilan o'zaro aloqasini mustahkamlash hamda shaxsning mustaqil va mas'uliyatli hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan. Shu sababli, ijtimoiy ishning pedagogik jihatida faqat tarbiya emas, balki insonni ijtimoiy jihatdan faol sub'ektga aylantirish jarayonidir. Psixologik nuqtayi nazaridan esa, ijtimoiy ish insonning ruhiy muvozanatini saqlash, emotsional barqarorligini tiklash va ichki ijobiy motivatsiyani rivojlantirishni maqsad qiladi. Insonning ijtimoiy hayotidagi faolligi uning ruhiy holati bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy pedagog o'z faoliyatida psixologiya, diagnostika, empatiya, faol tinglash va samarali maslahat berish usullaridan foydalanadi. Bugungi kunda, ijtimoiy pedagogikaning ahamiyati yanada ortmoqda. Chunki, zamonaviy jamiyatda oilaviy, iqtisodiy, axloqiy va madaniy muammolar inson shaxsining ijtimoiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy ishning pedagogik va psixologik ahamiyatini o'rganish, bir tomondan shaxsning ijtimoiy taraqqiyotdagi rolini ochib berishga yordam bersa, ikkinchi tomondan ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Maskur mavzuni chuqur o'rganish ijtimoiy xodimlar, ijtimoiy pedagoglar va psixologlar faoliyatida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga zamin ochadi. Shu bilan birga, ijtimoiy pedagogikaning zamonaviy hayotidagi o'rnini ochib beradi.

Asosiy qism

Ijtimoiy ishning pedagogik va psixologik ahamiyati insonning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasini rivojlanishi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasini chuqur anglashga imkon beradi. Pedagogik yondashuv tarbiyaviy natijalarni kuchaytirsa, psixologik yondashuvlar insonning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi. Ijtimoiy pedagogk esa ushbu ikki yo'nalishni birlashtirgan holad, shaxsni jamiyat hayotiga faol qo'shilishga tayyorlaydi⁴⁹. Ijtimoiy pedagogikaning mohiyati insonni ijtimoiy muhitga tayyorlash unda ijtimoiy madaniyatni shakllantirish va ijobiy qadriyatlarni singdirishdan iborat. Ijtimoiy pedagog – bu pedagogik, psixologik va ijtimoiy bilimlarni o'zida uyg'unlashtirgan mutaxassis bo'lib, insonning ijtimoiy hayotidagi faoliyatini

⁴⁹ B.SH.SHermuhammadov, B.B.Qurbonova, U.Q.Maqsudov, M.A. Qo'chqorova, Z.M.Sidikova. "Umumiy Pedagogika".Farg'ona 2022 yil.

qo'llab-quvvatlash, muammolarni aniqlash va ularni hal etishda yordam berish bilan shug'ullanadi⁵⁰.

Ijtimoiy pedagog quydagi kasbiy rollarni bajaradi:

1. **Tarbiyachi va yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi.** U shaxsni to'g'ri yo'lga yo'naltiradi, tarbiyaviy qadiriylatlarini singdiradi.
2. **Maslahatchi va vositachi.** Oila, maktab va jamoa o'rtasida hamkorlik aloqalarini kuchaytiradi.
3. **Ruhiy qo'llab- quvvatlovchi.** Insonning (shaxsni, bolani) psixologik muammolarini tinlaydi, u bilan individual ishlaydi.
4. **Ijtimoiy faollashtiruvchi.** Shaxsni jamiyat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy mahorati uning empatiyasi, muloqot madanyati, kuzatuvchanligi va tahliliy fikrlash qobilaytida ko'rinadi. U nafaqat muammoga tshxis qo'yuvchi, balki ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshiruvchi sub'ekt sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu bois, ijtimoiy pedagogikaning rivoji nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning ma'naviy va ruhiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omil sifatida baholanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan ijtimoiy ishning eng muhim vazifalardan biri – shaxsni o'z muammosini anglash va uni hal etishga o'ratishdir. Bu jarayonda ijtimoiy pedagog shaxsga (bolaga) yo'l ko'rsatadi, tarbiyachi sifatida faoliyat yuritadi. Shaxsga bilim beradi, ayni payitda uni hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi⁵¹. Ijtimoiy pedagogikada mutaxassis, ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning jamiyatdagi hayotga qo'shilishiga bog'liq qonunlar va hodisalarni o'rganadi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, bolaning jamiyatga "kirish" jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani qo'lga kiritishi (bilim, qadiriylat, yurush-turush qoidalari) bilan bog'liqdir. Ushbu jarayon umumiy ma'noda ijtimoiylashuv deyiladi. Agarda biz ijtimoiy pedagogika mohiyatini uning obekt va predmetini qiyoslash orqaliy aniqlamoqchi bo'sak quydagi holat kelob chiqadi. Pegagogikada ham, ijtimoiy pedagogikada ham obekt bu bola, biroq o'rganish predmeti turlicha. Pedagogikada o'rganish predmeti bolni tarbiyalash qonuniylatlari hisoblansa, ijtimoiy pedagogikada esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniylatlari tushuniladi⁵².

Ijtimoiy pedagogikaning tarkibiy qismlari mavjud. Bularni ko'rib chiqamiz.

-Falsafa va ijtimoiy pedagogika. Falsafa inson borlig'i masalalarini o'rtaqa qo'yadi va ularga javob topishga harakat qilib, dunyoqarashning umumlashgan

⁵⁰ B.SH.SHermuhammedov, B.B.Qurbonova, U.Q.Maqsudov, M.A.Qo'chqorova, Z.M.Sidikova. "Umumiy Pedagogika". Farg'ona. 2022 yil.

⁵¹ M.Ziyodova. "Ijtimoiy pedagogika asoslari". Toshkent Fan nashiriyoti. 2020 yil.

⁵² B.SHermuhammedov, B.Q.Qurbonova, U.Q.Maqsudov, M.A.Qo'chqorova, Z.M.Sidikova. "Umumiy pedagogika". Farg'ona. 2022 yil.

tizimini ishlab chiqadi. Ijtimoiy pedagogikaning “ijtimoiy tarbiya falsafasi” bo’limi inson va uning tarbiyasiga muayyan qarshlardan kelib chiqadi va bu qarshlarda har doim u yoki bu falsafiy asoslarga suyanadi.

-Etik va ijtimoiy pedagogika. Etik axloqiy tasavvur va qarashlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini shuningdek u tartibga solayotgan axloqiy ong shakllarini va ularning axloqiy faoliyatini tahlil qiladi.

-Sotsiologiya va ijtimoiy pedagogika. Sotsiologiya jamiyat, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tarbiya uslubiyati rivoji, faoliyat yuritishi, shakllanish qonuniyatlari haqidagi fan. Ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi ijtimoiylashuv muammolarini o’rganish jarayonida ijtimoiy bitim sohalarining bir qator ma’lumotlari (yosh, shahar va qishloq, dam olish, ommaviy aloqalar, axloq, ta’lim, jinoyatchilik, din, oila) dan foydalanadi.

-Etnografiya, etnopsixologiya va ijtimoiy pedagogika. Etnografiya xalqlarning maishiy va madaniy xususiyatlarini o’rganadi. Etnopsixologiya insonlar ruhiyatining etnik xususiyatlari, milliy xarakteri, milliy o’z-o’zini anglashning shakllanish qonuniyatlarini, etnik steriotiplarini o’rganuvchi bilim sohasi sanaladi. Ijtimoiy pedagogika o’zining asosiy muammosi bo’gan ijtimoiylashuv jarayoning nazariy va amaliy jihatdan asoslanish etnografiya va etnopsixologiya fanlariga ham murojaat qiladi va oziqlanadi.

-Ijtimoiy va yosh psixologiyasi hamda ijtimoiy pedagogika. Ijtimoiy psixologiya, insonlarni ijtimoiy guruhlariga qo’shilishlari xolatini keltirib chiqaruvchi inson faoliyati va yurush- turish qonuniyatlari, shuningdek bu guruhlarining psixologik ta’riflarini o’rgansa, yosh psixologiyasi esa inson ruhiyati dinamikasi va yosh xususiyatlari shuningdek, shaxs rivojlanishining yoshga bog’liq omillarini o’rganadi. Ijtimoiy pedagogika fan sohasi sifatida bir qator vazifalarga ega bo’lib, ularni quydagicha guruhlash mumkin.

Nazariy vazifa: ijtimoiy pedagogik bilimlarni to’plab zamonaviy jamiyatda o’rganayotgan jarayon va hodisalarning to’liq tasvirini tuzishga intilishda nomoyon bo’ladi.

Amaliy vazifa: ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiylashuviga tashkiliy-pedagogik va psixologik yo’nalishlardagi ta’sirini samaraliy takomillashtirish ishlarni aniqlash bilan bog’liq ishlar kiradi. Bunday ishlar qatoriga, bolalar (yoshlar) ongida, xatti-harakatida ijobiy fazilatlarning shakllanishiga yaqindan yordam beruvchi vositalarni aniqlash va ularni tadbiq etish, har qanday vaziyatdan mustaqil chiqib ketishning samaraliy yo’llarini aniqlash, atrofdagi kishilar bilan muomala qilishni o’rganish, hayot mazmuni va maqsadini aniqlashga doir tavsiyalar berish, ularga jamiyatdagi huquqiy va majburiyatlarini bilishga intilishni rivojlantirish, hamda mustaqillik, o’ziga ishonch hissini shakllantirish kabilar

kiradi⁵³. Umumiy olganda, ijtimoiy ish xodimlari ijtimoiy pedagogika amaliy kasbining egasi bo'la oladilar. Sababi, ulardagi kompleks bilimlar majmuasi, shaxsga (bolaga) yordam berish va qiyin vaziyatlarda qanday harakat etish kerakligi haqida baholash rejalarini tuzish uchun yetarliy sanaladi. Shu o'rinda, maktablarni ijtimoiy ish kasb egalari faoliyatlariga bog'lasak.

Maktab bu- bolalar bilim oladigan va muloqot qiladiga, bir-birlari bilan va boshqa insonlar haqida bilib oladigan, ularda ijtimoiy ko'nikmalar, qadiryatlar shakllantiradigan maydon. Maktab muhiti sog'lom va do'stona bo'ishi, bolalar muvaffaqiyatlarga erishishlari hamda rivojlanishlari uchun juda muhimdir⁵⁴. Shuning uchun, ijtimoiy ish va bu soha vakillari maktab sharoitida juda muhim, chunki ular maktab farovonligini saqlashga, bola shaxsiyatini shakllantirishga katta hissa qo'shadilar. Rivojlangan davlatlardagi maktablar tajribasidan ko'rinadiki, birinchi maktab ijtimoiy ishchilari ya'ni ijtimoiy pedagoglar "tashrif buyuradigan o'qituvchilar" deb nomlangan va ularning ijtimoiy sohada belgilangan vositalarga tayanib oilaga, yordamga muhtoj bolalarga (yoshlarga) va maktab jamosiga amaliy yordamlar berishgan. Bu esa maktablardagi ijtimoiy muhitga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ijtimoiy ish va ijtimoiy pedagogikaning o'ziga xos xarakteri ularning boshqa fanlar va amaliy faoliyat bilan bog'liq ekanligidir.

Zamonaviy jamiyatda insonning ijtimoiylashuvi, shaxsiy rivojlanish va hayotiy muammolarni hal etish jarayonida ijtimoiy ish alohida o'rin egallamoqda. Bu sohani pedagogika tizimida ham qo'llash ijobiy natijalar berdi deb ayta olamiz. Bu soha insonparvarlik tamoyillariga asoslanib, har bir shaxsning imkoniyatlarini to'liq ochishga xizmat qiladi. Bu yo'nalish, nafaqat moddiy yordam tizimini, balki tarbiyaviy, psixologik va madaniy quvvatlashni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, uning pedagogika va psixologiya jihatdan o'rganilishi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ijtimoiy ishda, ijtimoiy pedagogikaning eng muhim ahamiyatli tomonlari mavjud. Ular, shaxsning ma'naviy-axloqiy qadiriylatlarini shakllantirish, oila va jamiyat o'rtasida tarbiyaviy aloqalarni mustahkamlash, ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish, ta'lim muossasalarida ijtimoiy moslashuvni ta'minlash. Ijtimoiy ishchi yoki ijtimoiy pedagogikaning professional faoliyatida quydagi psixologik yo'nalishlar zarur o'rini egallaydi:

- empatiya va muloqot madaniyatini rivojlantirish;
- muammoli vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsata olish;
- shaxslararo nizolarni konstruktiv hal eta olish;

⁵³ R.A. Vohidova, N.H.Vohidova, "Ijtimoiy pedagogika", O'quv qollanma. Toshkent. O'qituvchi nashriyoti. 2019 yil.

⁵⁴ M.M.Abduraxmonova. "Maktabda ijtimoiy ish". Farg'ona 2022-yil.

- bolalar va o'smirlarni emotsional rivojlanishlarini qo'llab-quvvatlash;⁵⁵.

Ijtimoiy pedagogika shaxsni jamiyatda ijobiy o'zgarishlar yaratishga qodir shaxs sifatida tarbiyalashga qaratigan faoliyatdir. Shu ma'noda, ijtimoiy ishning pedagogik mohiyati insonning "ijtimoiy yetuklik", darajasiga erishishga xizmat qiladi. Umumiy ma'noda, ijtimoiy ish samaradorligi pedagogik va psixologik komponentlarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Bu integratsiya shaxsni kompleks rivojlanish, uning ijtimoiy kompetensiyasini oshirish va ruhiy barqarorligini ta'minlashni ko'zda tutadi. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy vazifasi, mijozga (shaxs, bola, o'smir)ga yordam berish emas, balki insonni o'z-o'ziga yordam bera olish darajasiga olib chiqishdan iboratdir. Bu mohiyatni, ijtimoiy pedagog unutmasligi kerak.

Xulosa

Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida shaxsning ijtimoiy moslashuvi va o'zini reallikka integratsiya qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joyizki, ijtimoiy ish insonni qayta ijtimoiylashtirish, ruhiy barqarorlashtirish va ijtimoiy faol sub'yekt sifatida shakllantirishga qaratilgan integrativ fanlararo tizimdir. Uning pedagogik va psixologik komponentlari bir-birini to'ldirib, insonning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishida muvozanatni ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy pedagogika hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanib boruvchi integral fan sifatida qaraladi.

Shuningdek, ijtimoiy ishning pedagogik ahamiyatini chuqurlashtirish uchun quydagi ilmiy-tashkiliy takliflarni ilgari surish mumki:

1. Integrativ yondashuvlarni kengaytirish- ijtimoiy pedagogik faoliyatni reabilitatsiya va trening texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish.
2. Kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirish- ijtimoiy pedagoglar uchun emotsional intellekt, stressni boshqarish va empatiya ko'nikmalarini rivojlantiruvchi maxsus modular joriy etish.
3. Innovatsion texnologiyalarda bu sohani tatbiq etish- raqamli ijtimoiy xizmatlar, masofaviy yordam va interaktiv o'quv platformalarini ijtimoiy pedagogika amaliyotiga kiritish.
4. Tahliliy va samaraliy tadqiqotlarni chuqurlashtirish- ijtimoiy pedagogikani amaliyotga tatbiq etish, baholash mezonlarini ishlab chiqish va empirik natijalar asosida yangi model va paradigmalarga asos yaratish.

Umumiy olganda, ijtimoiy ishning pedagogik va psixologik jihatlari jamiyatning barqaror taraqqiyoti, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda fundamental o'rin egallaydi. Shu sababli, ijtimoiy

⁵⁵ A.R. Mavlonova, D.Abdurahimova, "Pedagogik mahorat". O'quv qo'llanma. Fan va texnologiyalar. 2012 yil.

pedagogika nafaqat ilmiy-nazariy yo'nalish, balki insonparvarlik missiyasini bajaruvchi amaliy tizim sifatida ham rivojlantirish zarur. Ijtimoiy pedagogika global ijtimoiy muhitda insonparvarlik tamoyillarini amaliyotga tadbiq etuvchi fan sifatida ham ahamiyatli deb ayta olaman. Chunki, insonlar taraqqiyotning yangi bosqichida. Psixologik inqirozlar, ijtimoiy begonalashuv, axborot bosimi va shaxslararo komunikatsiya inqirozi kabi hodisalar insonni o'z mohiyatidan uzoqlashtirish xavfini yaratmoqda. Bu jarayonda esa ijtimoiy pedagogikaning asosiy vazifasi, insonni qayta ijtimoiylashtirish, undagi insoniylik, empatiya, o'zaro hamdardlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini tiklashdan iborat. Ijtimoiy pedagog insonning "ijtimoiy men"ini anglashga, uning shaxsiy rivojlanishini ijtimoiy kontekstda shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq, ijtimoiy pedagogikada zamonaviy muammolar ham mavjud. Ularda eng asosiysi, professional kadrlar yetishmasligi. Bu sohada ijobiy natijalarga erishish uchun albatta kadrlarga ehtiyojimiz bor. Hozirgi zamon davlatining ijtimoiy siyosati va pedagogik strategiyasi bir-biri bilan chambarchasi bog'langan. Ijtimoiy pedagogika insonni davlat siyosatining markaziga qo'yadi, sababi taraqqiyotning eng muhim omili bu insonning ichki dunyosi, ruhiyatidir. Insonni ruhiy jihatdan barqaror, ijtimoiy jihatdan faol, axloqiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash orqali davlat o'z kelajagini mustahkamlaydi. Shu sababli, ijtimoiy pedagog bu zamonaviy davlatning eng muhim ijtimoiy kapitali, ruhiy xavfsizlik va ma'naviy barqarorlikning kafolati ham bo'la oladi deb ayta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.Sh.Shermuhammedov, B.Q.Qurbonova, U.Q.Maqsudov, M.A.Qo'chqorova, Z.M.Sidikova. "umumiy pedagogika". Farg'ona. 2022-yil.
2. M.M.Abdurahmonova. "Maktabda ijtimoiy ish". Farg'ona. 2022-yil.
3. A.R.Mavlonova, N.H.Vohidova. "Ijtimoiy pedagogika" O'quv qo'llanma. Fan va texnologiyalar. 2012-yil.
4. S.Nishonova, M.Imomova, R.Xusanov. "Pedagogika tarixi" Darslik. O'qiyuvchi 2022-yil.
5. N.Egamberdiyeva. "Ijtimoiy pedagogika" Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'Zmkn.T. 2009 -yil.
6. X.M.Ganiyeva. "Ijtimoiy ish asoslari". Metodik qo'llanma. Toshkent . 2010-yil.
7. S.Mannopov. "Ijtimoiy ish xodimining etikasi va qadiriylatlari". O'quv-uslubiy ko'rsatma. FarDU. 2017-yil.

8. Z.T. Nishonova. "Rivojlanish psixalogiyasi. Pedagogika va Psixalogiya". Toshkent. 2019-yil.